

**SOVET DAVRIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI VA MUSTAQILLIKNING  
ILK YILLARIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI***Oriental universiteti Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti**Umirzaqova Nargiza Baxodirovna**Telefon raqam: +99894-938-66-88**Elektron pochta manzil: baxodirovnargiza@mail.ru***СОВЕТСКАЯ СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И НАЧАЛО  
РЕФОРМ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ***Магистрант 1 курса исторического факультета Восточного  
университета**Умирзакова Наргиза Баходировна**Телефон: +99894-938-66-88**Адрес электронной почты: baxodirovnargiza@mail.ru***THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION IN THE SOVIET ERA AND  
THE BEGINNING OF REFORMS CARRIED OUT IN THE EARLY YEARS  
OF INDEPENDENCE***Oriental University 1st year graduate in history**Umirzakova Nargiza Bakhodirovna**Phone number: +99894-938-66-88**Email address: baxodirovnargiza@mail.ru*

**Annotatsiya:** O'zbekistonda sovet mustamlakachiligi davridagi oliy ta'limgiz tizimi va mustaqillikning ilk yillarida olib borilgan islohotlarning boshlanishi, sovet davridagi va mustaqillikdan so'ng yo'lga qo'yilgan ta'limgiz tizimining qiyosiy tahlili hamda ta'limgizda erishilgan yutuqlar haqida mulohaza qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sovet oliy ta'limi, marksistik-leninistik mafkura, yangi ta'limgiz tizimi, islohotlar.

**Аннотация:** Обсуждаются система высшего образования в Узбекистане в период Советского колониализма и начало реформ в первые годы независимости, сравнительный анализ системы образования в советское время и после обретения независимости, а также достижения в образовании.

**Ключевые слова:** советское высшее образование, марксистско-ленинская идеология, новая система образования, реформы.

**Abstract:** Uzbekistan reflects on the system of higher education during the Soviet colonial period and the beginning of reforms carried out in the early years of independence, a comparative analysis of the educational system established during the Soviet period and after independence, as well as the achievements in education.

**Key words:** Soviet higher education, Marxist-Leninist ideology, a new educational system, reforms.

### Kirish.

Bugungi kunda yurtimiz ta'lif sohasida bir qancha ulkan yutuqlarni qo'liga kiritmoqda. Tarixga nazar tashlasak, sovetlar mustamlakachiligi yillarida partiya yakkahokimlikning vujudga kelishiga jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o'z mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Ayniqsa, bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lib ta'lifda, ilmda va madaniyatda jiddiy tus oldi. Xalqimizning ilmfanga, milliy madaniyatimiz va ma'rifatga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko'zlamay va yaxshi o'ylamay olib borgan siyosatlari natijasida siyosiy manfaatlar yo'liga burildi. Ikkinchisi jahon urushidagi katta yo'qotishlar olyi ma'lumotli xodimlarning soni va sifatini kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Shu sabab urushdan keyingi yillarda olyi ta'lifni rivojlantirish zarururati yuzaga keldi. Olyi ta'lifni rivojlantirish dinamikasi quyidagicha kechdi. 1950-1953 yillarda 16.600 ta mutaxassis tayyorlandi. 1959-yilda 31 ta olyi o'quv yurtida 88 ming kishi ta'lif oldi. 1985-yilga kelib, 42 ta olyi o'quv yurtlarida 285.5 ming kishi ta'lif oldi. 1960-yilda 30 ta olyi o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 42 tani tashkil etdi.

Bu statistik ko'rsatkichlaridagi ayrim siljishlar edi. Masalaning asosiy jihatni esa olyi ta'lif muassasalarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarning sifati va saviyasi masalasida ko'plab muammolar mavjud edi. Shu o'rinda jahon fanlar tizimida o'z mavqesiga ega olimlarning yetishib chiqganligi va texnikada katta yutuqlar qo'liga kiritilganligini inkor etib bo'lmaydi.

Biroq olyi va o'rta maxsus ta'lif tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozaga solish kuchaydi, xalqaro fanlararo aloqalar qattiq nazorat ostiga olindi. Olyi ta'lif muassasalarida yetishib chiqqan mutaxassislar mamlakat aholisining oz qismini tashkil qilgan. O'zbek xalqining orasidan savodsiz hatto umumiy 11 yillik ta'lifni ham egallamaganlarni ham ko'rish mumkin edi. Bu sovet hukumatining puxta o'ylangan rejasi bo'lib, o'zbek xalqi uchun yod bo'lgan komunistik mafkura bilan millat ongi va ruxini zabit etishga harakat qilgan. Shu yo'l bilan xalqni qaramlikda, kuchli tazyiq ostida tutib turish, ularning pirovard maqsadi bo'lgan. Biroq ularning o'ylagan rejasi amalga oshmadidi, milliy ozodlik ruhi ostida kamol topgan xalqimizning sabr-bardoshi, mustaqillik uchun olib borgan kurashi o'z samarasini berdi.

Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab har bir sohaga ulkan e'tibor qaratildi, shu bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham tub burilishlar yuz berdi. Yildan yilga yoshlarga ko'rsatiladigan e'tibor ortib bordi. Jumladan, jahoning sanoqli mamlakatlaridagina mavjud majburiy 12 yillik bepul ta'lim tizimi yaratildi. Bir qancha oliy ta'lim muassasalari yoshlarni chuqur ta'lim olishlari uchun zamonaviy ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan jihozlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagagi qaroriga asosan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (keyinchalik 1997-yilda hamda 2020-yilda yangidan qabul qilingan) amalga kirdi<sup>1</sup>.

Shu o'rinda yuqorida keltirilgan barcha jarayonlarni tahlil qilgan holda maqolada O'zbekistonda sovet mustamlakachiligi davridagi oliy ta'lim tizimi va mustaqillikning ilk yillarda olib borilgan islohotlarning boshlanishi haqida fikr yuritamiz.

### Adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston mustaqillik ostonasida turar ekan, respublika rahbariyatining dastlabki vazifalardan biri ilm-fanni, ta'lim tizimini isloh qilish, modernizatsiya qilish lozimligini chuqur anglar edi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1988-yil 20-noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida bo'lgan uchrashuvda shunday degan edi: "Respublika hayotining barcha sohalarida ilm-fan mavqeini prinsip e'tibori bilan yangi sifat darajasiga ko'tarish respublika Fanlar Akademiyasining asosiy vazifasidir, deb o'yaymiz. Ilm-fan ahliga buyruq berish, quruq ma'muriyatçilik, olimlarga apparat xodimlari kabinetlarida paydo bo'ladigan "ijtimoiy buyurtmani" ro'baro' qilish davri o'tib ketdi. Ijodiy izlanishlarning natijalarini qamrab olgan Fanlar akadepmiysi olimlarining asarlari va tavsiyalari respublika taraqqiyotining istiqbolini belgilaydigan keklajakdag'i hisob-kitoblar va siyosatning poydevori bo'lishi darkor.... Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy mакtabning, hatto umumiyligi ta'lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak"[1].

Respublikamizda emas balki Markaziy Osiyoda oliy ta'limni tashkil topishida va rivojlanishida Toshkent Davlat Universiteti katta o'rin tutadi. Davrlar mobaynida ushbu universitetning qator fakultetlari negizida bir nechta mustaqil institutlar tashkil topdi. "Milliy universitet" mustaqillik yillarda oliy ta'lim rivojiga munosib xissasini qo'shdi va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining ijrosida haqiqiy bayroqdarlik qildi[2]. Shu o'rinda oliy ta'lim sohasida ko'plab sohalarga bosh mezonni belgilovchi O'zbekiston Milliy universitetida 30 dan ziyod ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, ulardag'i ilmiy natijalar ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilayotganligi quvonarli holdir.

<sup>1</sup> O'zbekistonning eng yangi tarixi. Uslubiy qo'llanma. SamDVMChBU. Samarqand. 2022. 150-bet

Oliy ta’lim uzluksiz ta’lim tizimini bosh bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Bu soha jamiyatning iqtisodiyoti, fani, madaniyati va texnologik jarayoni bilan yaxlit holda chasbarchas bog‘liqdir. Shuning uchun uning taraqqiyoti umummilliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XXI-asr globalizatsiya bilan bog‘liq holda oliy ta’limga yangi an’analar va yangi muammolarni yetkazib berdi. Bu jarayon dunyoning barcha universitetlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bugungi kunda barcha universitetlar uchun dunyo ta’lim kengliklarida o‘z mavqeini saqlab qolish, teng huquqli hamkor sifatida bo‘lish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda[3].

### Tahlil va natijalar.

Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekistonning milliy ta’lim tizimi joriy etilmagani ayanchli holat. Asosan ta’lim tizimi sobiq markazning hukmron mafkura manfaatlariga bo‘ysundirilgan edi. Aksariyat fanlar o‘quv dasturiga kiritilmagan. Masalan, “O‘zbekiston tarixi” fani xolis o‘rganilmagan, o‘quv dasturida bu fanga ajratilgan soatlarning katta qismi sobiq ittifoq tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan edi. O‘quvchilar ongi Vatanimiz tarixining noto‘g‘ri talqin qilingan hodisalari bilan to‘ldirilar edi. Milliy qadriyat va ma’naviyat toptalar, asl o‘zbek olimlarini va buyuk davlat arboblari, sarkardalari hayot va ijod yo‘llari qoralangan. Bunga misol Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va hokazolarni keltirish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirila boshladi. Ayniqsa ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratildi. Ta’lim-tarbiya tizimi takomillashgani sayin odamlarning ma’naviyati, ongi, tafakkur doirasi shakllanib, yuksalib bordi. Ta’lim tizimini har tamonlama, shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni talab etayotgan bir paytda odamlarning ongi, dunyo qarashi, bilim saviyasini o‘zgartirmay, uni zamonaviylashtirmay turib yangi jamiyatni barpo etib bo‘lmashdi<sup>2</sup>.

Birinchi navbatda universitetlar ta’lim tizimini zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta’lim tizimining asosi bo‘lgan yangi o‘quv rejalar, dasturlar yaratildi. 1993-yildan davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi va bakalavrular tayyorlashda qo‘llanila boshladi. Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995-yil 31-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o‘quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida oliy ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash

<sup>2</sup> mfa.uz

va rivojlantirish, ularni zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darslik va o‘quv uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta’minlash amalga oshirildi. Bu davrda Toshkent Islom universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatika universiteti kabi o‘nlab universitet va institutlar tashkil etildi. Moskva Davlat universitetining filiali, xalqaro Westminstr universiteti, Turin politexnika instituti kabi nufuzli oliy ta’lim dargohlari minglab yoshlarga ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda ta’lim berilgani yurtimizda kadrlar tayyorlashni yanada yuqoriga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatini oshirish, xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni qo‘shma fakultet va institutlar ko‘magida tayyorlash tajribasi yo‘lga qo‘yildi.

### Muhokama.

Oliy o‘quv yurtlari mamlakat ta’lim tizimida yetakchi bo‘g‘in hisoblanadi. Chunki O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlovchi, yurt ravnaqini yuksaklarga ko‘taruvchi, milliy urf-odat, an'analarimizni qadrlovchi, kuchli, qat’iyatli mutaxassislar aynan oliy ta’limda tayyorlanadi.

Sir emaski, sovet ta’limi o‘zgarmas va bosimli edi. Ilmiy-tadqiqot va ta’lim, barcha fanlar, ayniqsa ijtimoiy fanlar bo‘yicha, marksistik-leninistik mafkura hukmronlik qildi va KPSS tomonidan nazorat qilindi. Bunday hukmronlik genetika kabi butun akademik fanlarning bekor qilinishiga olib keldi. Olimlar o‘sha davrda burjua deb e’lon qilingani uchun tozalandi. Tugatilgan filiallarning aksariyati sovet tarixida, 1960-1990-yillarda qayta tiklangan. Sho‘rolar mustamlakasi davrida hukmron tuzum o‘zining jahonda demokratik va savodxon jamiyat barpo etgani haqida dunyoga jar solgan edi.

Sobiq SSSRda yuzlab universitet va institutlar, oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlari, minglab ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko‘rsatardi. Sovet tizimida ta’limning bepul va umumlashtirilgan bo‘lishi natijasida ko‘plab o‘quvchilar o‘qishga imkoniyat topganliklarini ham aytib o’tish joiz.

O‘zbekiston mustaqillikga erishgan so‘ng yangidan yangi o‘quv yurtlarini barpo etish va xorijiy davlatlar universitetlarining filliallari yurtimizda ochilishi, ta’lim tizimidagi islohotlarning yorqin namunasi bo‘ldi. Oliy ta’limning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta’minlashga, o‘zi tanlagan mutaxassislik bo‘yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatdardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat. Respublika oliy o‘quv yurtlarida talabalar bilim olish bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib boradilar.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar sabab xorijdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan aloqalar kuchaytirilib, chet el investitsiyalari ta’lim sohasiga jalb etildi. Oliy ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta’lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalariga ko‘tarish,

malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, xorijiy ta’lim muassasalari bilan o’zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish bo‘yicha tajriba almashtirish maqsadlarida amalga oshirildi.

Ta’lim sifatini oshirish, unda yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislarni tayyorlashning talablari davlat oliy ta’lim standartlariga to‘la mos kelishi doimiy nazoratda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

### Xulosa

1932-yilda respublikamizda oliy o‘quv yurtlari tarmog‘i ortib bordi. Bu davrda 31 ta oliy o‘quv yurtida 12,2 ming talaba o‘qigan bo‘lsa, 1941-yilga kelib ularda ta’lim olayotganlarning soni 18 ming kishiga yetdi. Shu bilan birga bu yillar davomida 100 ga yaqin o‘rtta maxsus o‘quv yurtlari tashkil qilinib, ularda 15 mingga yaqin yoshlar ta’lim olishdi. Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim tizimida bu yillar davomida o‘zbek millatiga mansub talabalar soni ham ortib bordi. Lekin oliy o‘quv yurtlaridagi mavjud professor-o‘qituvchilari asosan rus ziyolilari edi. Sovet hukumati O‘zbekistonda ta’lim tizimini yo‘lga qoyishining asosiy maqsadlari xalq ta’limi bo‘g‘inlarini yuksaltirish, o‘zbek xalqini savodxon qilish, ilm-fan yutuqlari, madaniyat chashmalaridan bahramand etish emas, balki eng avvalo yurt farzandlari ongiga, shuuriga kommunistik g‘oyalar va ideallarni chuqur singdirish va shu yo‘l bilan o‘zlariga xizmat qiladigan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish bo‘lgan.

O‘zbek xalqi azal-azaldan ilm va ma’rifatga intilib kelgan. Istiqlol yillarida ushbu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoridan o‘rin oldi. Buni olib borilgan keng ko‘lamdagи islohotlar yaqqol tasdiqlaydi. Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, malakli kadrlar siyosatini rivojlantirishni hamda uning moddiy texnik bazasini mustaxkamlash borasida qilinayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Fan-texnika tarraqiyoti va ta’lim tizimini raqobat bardosh sohaga aylantirish O‘zbekiston uchun hayotiy masala ekanligi xalqimiz ongu-shuuridan mustahkam o‘rin oldi.

Oliy ta’lim sifatini oshirish, universitetlarimizni jahoning nufuzli universitetlari qatoridan joy olishlar mamlakatimizdagi oliy ta’lim oldiga qo‘yilgan birlamchi talablar edi. Ilm-fan taraqqiyotining yangi bosqichi, yangi fan, ilm tadqiqot, innovatsion yutuqlarning rag‘batlantirish va ularni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmi yaratildi. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini jahon talablari darajasiga ko‘tarish va ta’lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish ta’lim dasturini erkin tanlash hamda uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o‘zgarishlariga

erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlar yanada kuchaytirildi. Bu islohatlar samarasi bugungi kun ta'lim tizimida o'z natijasini ko'rsatdi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. "Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanalaylik", Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, Toshkent, "O'zbekiston". 2012, 72-b.
2. Mustaqil O'zbekiston, S.G'ulomov, E. Ubaydullayeva, E.Axmedov. "Mehnat", Toshkent, 2001. 61-b.
3. Mustaqillik ostonasida O'zbekiston SSRda ta'lim tizimining holati.
4. Voprosi innovatsiy v izuchenii reformirovaniya visshego obrazovaniya Respublikni Uzbekistan. Siddiqov R.B. O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalar (ilmiy to'plam), "Noshir", Toshkent, 2012, 232 b.
5. **O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.** Karimov I.A. T, 1992y, 13 bet.
6. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Karimov I.A. "O'zbekiston", Toshkent, 1997, 25-b.
7. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Uslubiy qo'llanma. SamDVMChBU. Samarqand. 2022.150-bet

**Web saytlar**

1. <https://medium.com>
2. <http://muhaz.org>
3. <https://milliycha.uz>
4. <https://wikipedia.uz>
5. Mfa.uz